



MINTAQА EKSPORT SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI



Raximov T.J.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqа eksport salohiyatidan samarali foydalanish asoslari, o'ziga xos xususiyatlari va uni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье описаны принципы эффективного использования экспортного потенциала региона, его особенности, а также организационно-экономические механизмы его реализации.

Abstract. This article describes the basics of effective use of the region's export potential, its specific features and organizational and economic mechanisms for its implementation.

Kalit so'zlar. Eksport, eksport salohiyati, mexanizm, bozor, korxona.

Ключевые слова. Экспорт, экспортный потенциал, механизм, рынок, предприятие.

Key words. Export, export potential, mechanism, market, enterprise.

Bugungi kunda mintaqа iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatini samaradorligini oshirish strategiyasi ko'p qirrali yondashuvni talab etadi. Bu holatda jahon xo'jaligining o'zgarishi, o'rnatilgan integratsiya tufayli geografik joylashuv o'zgaruvchanligi, iqtisodiy o'sish yangi markazlarining shakllanishi O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining aniq yo'nalishini belgilaydi [1]. Bu xom ashyo yo'nalishidan innovatsion va texnologik rivojlanishga o'tish asosi sifatida iqtisodiyot tarmoqlarini samarali texnologik rivojlantirish asosida modernizatsiya qilish strategiyasi bo'lishi kerak. Iqtisodiy o'sishning ustuvor yo'nalishlari qatorida mamlakatimiz hududlarida raqobatbardosh sanoatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tashqi savdoni samarali amalga oshirish uchun eksport sohasida tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilish kerak. Tadqiqotning tashkiliy-iqtisodiy tomonini ochib berish uchun mahmulot ishlab chiqarish korxonalaridagi jarayonlarni tartibga solish shakllari, usullari va vositalardan foydalanilgan. Ulardan foydalanish boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy tarkibiy qismlariga bevosita ta'sir qiladi. Biroq, ba'zi manbalar tahlili natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar

eksporti hajmlari hamda prognoz ko'rsatkichlari belgilandi. Buni ekonometrik baholash Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi, Jak-Bera, St'yudent, Fisher va Darbin-Uatson mezonlari yordamida ishlab chiqiladi [2].

Eksportni diversifikatsiya qilish eksport qilinadigan tovarlar sonining ko'payishiga olib keladigan iqtisodiy jarayon bo'lib hisoblanadi. Yakka tartibdagi eksport korxonasi va davlat darajasida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun diversifikatsiya zarur bo'ladi. Diversifikatsiya - biznesni kengaytirishning yangi usullarini izlash, eksport qilish, ya'ni tovarlar turlari yoki ularning miqdorini ko'paytirish va yangi eksport qiluvchi kompaniyalar bozoriga kirishdir [3].

Zamonaviy iqtisodiyotda eksportni diversifikatsiya qilish tovarlar assortimentini yangilashni nazarda tutadi. Shu bilan birga, kichik korxonalarni yirik korxonalarning qo'shilgan qiymat zanjirida ko'rib chiqish mumkin va bu esa diversifikatsiyaga yordam beradi [4]. Eksport mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xalqaro chegaralar bo'y lab harakatlanishini aks ettiradi [5]. Bu esa bir mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning boshqasiga sotishni o'z ichiga oladi. Shunday ekan, eksport salohiyatini oshirish algoritmi korxonalar va tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo'lib, import o'rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratiladi [6].

Iqtisodiy komponentni tavsiflashda tashqi iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy salohiyatga asoslanadi. Tashkiliy qism tashqi va ichki muhitga ta'sir ko'rsatadigan va ma'lumotlarga kirishda namoyon bo'ladi, sheriklarni tanlashni osonlashtiradigan va raqobat muhitini yaratadigan tashkiliy mexanizmni anglatadi. Ushbu mexanizm texnologiyalar, resurslar, hisob-kitoblar, taqsimlash tizimlari, menejment va marketing hamda eksport uchun mahsulotlarni shakllantirishga asoslanadi (1-rasm).

Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari

Eksportni moliyalashtirish va sug'urta qilish mexanizmlari

– Eksport kredit agentliklari orqali xavflarni minimallashtirish

Valyuta-kredit siyosati va eksportni rag'batlantirish choraları

– Valyuta kursining barqarorligi, eksportchilar uchun preferensial kreditlar

Soliq va bojxona imtiyozlari

– Eksport qiluvchi korxonalar uchun bojxona to'lovlarini kamaytirish, soliq imtiyozlarini joriy etish

1-rasm. Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari

Iqtisodiy potensial mavjud va safarbar qilinishi mumkin bo'lgan, asosiy manbalar, mamlakat vositalari, yaxlit iqtisodiy tizim potensiali unsurlari, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun foydalaniladigan va ishlatilishi mumkin bo'lganlar majmui sifatida qaraladi. Tashqi savdo faoliyatining iqtisodiy salohiyatining mohiyatini ochib berish uchun korxonalar eksport va import imkoniyatlariga, shuningdek, xalqaro hamkorligiga e'tibor qaratish lozim. Eksport salohiyatini ro'yobga chiqarish muammolari jahonning ko'pgina mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanishning turli bosqichlarida yuzaga keladi. Bu tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirish davlatning iqtisodiy va siyosiy o'z-

o'zini belgilashining eng muhim shartiga aylangan iqtisodiyoti transformatsion mamlakatlarga tegishli bo'ladi (2-rasm).

Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning tashkiliy mexanizmlari

Eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun davlat institutlari – Eksportni rivojlantirish agentliklari, savdo vakolatxonalarini va moliyaviy yordam dasturlari

Eksportchilar uchun preferensiyalar va imtiyozlar tizimi – Davlat tomonidan subsidiyalar, soliq imtiyozlari va arzon kreditlar berish

Xalqaro kooperatsiya va hamkorlik dasturlari – Iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari orqali xalqaro bozorlarga chiqish

2-rasm. Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning tashkiliy mexanizmlari

Bozor asosidagi qayta qurish sharoitida bozor munosabatlariga o'tish davrida ishlab chiqilgan tashqi savdoni boshqarishni tashkil etishning ko'pgina yondashuvlari iqtisodiyotdagagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda tuzatishni talab qiladi. Tashqi bozorlarga chiqish korxonaning barqaror ishlashi va bozorlarni kengaytirishning kafolati bo'lib qolmay, balki boshqaruv samaradorligining yetarli darajasini ta'minlashga asoslanadi. Unga tegishli darajadagi ochiq tashqi iqtisodiy faoliyat tizimi mavjud bo'lganda erishiladi. Bu borada milliy korxonalar tashqi savdoni tashkil etishda quyidagi usuldan foydalandilar:

- tashqi bozorga chiqish o'zining tashqi savdo kompaniyalari yoki savdo bo'limi orqali amalga oshiriladi;
- vositachilar orqali tashqi bozorga chiqish.

Korxonaning o'z tashqi savdo bo'limlarini yaratish samarali asoslanishi mumkin. Bu esa tovar aylanmasida eksport ulushi katta bo'lsa tashqi savdo operatsiyalari muntazam bo'ladi. Ya'ni, raqobatbardoshligi yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki o'z xususiyatlariga ko'ra noyob bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga asoslanadi. Jahon bozorining tegishli segmentida past raqobat sharoitida mahsulotlar xorijiy foydalanish shartlarini o'zgartirishni talab qilmaydi. Korxonada tashqi savdo faoliyati bo'yicha kerakli miqdordagi mutaxassislar mavjud bo'ladi. Bu borada tashqi savdo operatsiyalari samaradorligini oshirishga imkon beradigan quyidagi milliy, xorijiy yoki xalqaro vositachilardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- bozorni yaxshiroq bilish;
- doimiy mijozlarni mavjudligi;
- yirik hajmdagi operatsiyalar uchun xarajatlarni kamaytirish;
- yetkazib berish va hujjalarni qayta ishlash muddatlarini qisqartirish;
- sotishdan oldingi va sotishdan keyingi xizmatlarni ko'rsatish.

Integratsiya jarayonlari mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, yirik iqtisodiy makonlarning paydo bo'lishi va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning tezlashishi hisoblanadi. Bu omillar noaniqlik komponentining paydo bo'lishiga imkon beradi. Shu bois, biznes o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga doimiy moslashish va kelajakda samarali

kompaniya yaratish usuli sifatida strategik rejalarhtirishni talab qiladi. Strategik rejalarhtirish samarali tashqi savdo uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki, kompaniya jahon bozorida rejalarhtirish faoliyatining asosiy parametrlarining optimalligini tekshirishi mumkin. Bu esa uning faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu borada xalqaro strategiyani ishlab chiqish quyidagilarga imkon beradi:

- e'tiborni tashqi iqtisodiy faoliyatning eng muhim masalalariga qaratish;
- korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi vazifasi va asosiy maqsadlarini belgilash va amalga oshirishni muvofiqlashtirish;
- korxonani yangi holatga o'tkazish va zarur resurslardan foydalangan holda o'tkazishning optimal usullarini aniqlash.

Shuningdek, xalqaro iqtisodiy faoliyat strategiyasini shakllantirishda turli mexanizmlar hisobga olinishi kerak. Bu esa korxonalar salohiyatini shakllantiradi va strategiyaning asosini tashkil qiladi. Ushbu mexanizmlar tashkiliy boshqaruv, tashqi iqtisodiy faoliyatni axborot bilan ta'minlash, mahsulot eksportini rejalarhtirish, eksport yetkazib berishni hisobga olish va tahlil qilish va xodimlarni boshqarish kabilarga asoslanadi. Bu holatlar quyidagi muhim yo'nalishlar va mexanizmlarga asoslanadi:

- diversifikatsiya va mahsulot sifati. Diversifikatsiya bitta turdag'i mahsulotga bog'liq bo'lmaslik va mahsulotlar turlarini kengaytirishni anglatadi.

- mahalliy kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksport qilish uchun tayyorlashda davlat katta o'rinnegallaydi katta.

- logistika va infratuzilmani rivojlantirish. Samarali logistika tizimi mintaqaning eksport salohiyatini oshirishning muhim qismiga aylangan.

- raqamli texnologiyalar va onlayn platformalardan foydalanish. Elektron tijorat platformalari orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarga xalqaro bozorlarga kirishni osonlashtirish mumkin.

- erkin savdo hududlari va bozor integratsiyasi. Erkin savdo hududlari yoki iqtisodiy ittifoqlar mintaqaga yangi investitsiyalarni jalb qilishga va savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

- ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirish. Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar mintaqaning eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'yndaydi.

- ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va kadrlar tayyorlash. Barqaror eksport salohiyatini ta'minlash uchun mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim omil hisoblanadi.


- ekologik barqarorlikni ta'minlash. Yashil iqtisodiyot va ekologik toza mahsulotlarni rivojlantirish xalqaro bozorlarda talab yuqori bo'lgan segmentga aylanmoqda.

Mazkur mexanizmlarni amalga oshirish mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda eksport salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib, u uzoq muddatli rivojlanishni kafolatlaydi.

Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanish hududiy eksportni oshirish borasida quyidagi yo'nalishlardagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarga asoslanadi.

- *mavjud eksport salohiyatini oshirish va yangi bozorlarni izlab topish*. Unga asosan, 2017-2021-yillarda mobaynida viloyatdagi korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan mahsulotlar eksportining hajmi son va sifat jixatdan sezilarli darajada ortib bormoqda. 2017-2021-yillarda jami 736 mln. dollarlik mahsulot eksporti amalga oshirilgan bo'lib, 2016-yilga nisbatan ushbu ko'rsatkichlar 2 barobarga oshdi. Jumladan, sanoat

mahsulotlari 523 mln. dollarlik yoki 2016-yilga nisbatan 1,6 barobarga va meva-sabzavot mahsulotlari 213 mln. dollarlik yoki 2016-yilga nisbatan 6 barobarga oshdi. Xususan. Urganch, Xonqa, Hazorasp, Xiva va Shovot tumanlari va Urganch shahrida eksport hajmi 2 barobarga oshgan. Eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni 51 tadan 214 taga yoki 4 barobarga oshdi. Xorijiy eksport davlatlar soni 16 tadan 32 taga yetib, eksport geografiyasi 12 tadan (AQSh, Germaniya, Xitoy, BAA, Iroq, Turkiya, Bangladesh, Koreya, Xindiston, Vietnam, Yaponiya va Avstriya) ortiq yangi davlatlar o'zlashtirilishi hisobiga kengaygan (3-rasm).



3-rasm. Eksport salohiyatidan samarali foydalanish

Eksportga ortilgan tovarlar va mahsulotlar turlari 65 tadan oshib 30 tadan ortiq yangi (tayyor to'kimachilik mahsulotlari, gulkog'oz, meva-sabzavot sharbatlari, oyna, qurilish mollari, tibbiyot qo'lkoplari, margarin, baliq konservalari, qizilmiya ekstrakti va quritilgan meva-sabzavotlar) mahsulot turlari eksporti amalga oshirildi. Eksportbop meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiriladigan zamонави issiqxonalar maydoni 8 gettardan 285 gettarga yetkazildi. Natijada, mazkur yillar davomida 15 mln. dollardan ortiq mahsulotlar eksporti amalga oshirilgan. To'kimachilik sanoatida ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va yangi loyihalarni ishga tushirish hisobiga 2021-yil yakuni bilan 2,2 trln. so'mlik (2017-yilga nisbatan o'sish 2,1 barobar) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga erishildi va buning natijasida eksport hajmi 122,2 mln. dollarga yetkazildi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksportyor korxonalarga ko'rsatilgan jami 6 mlrd. moliyaviy yordam natijasida qo'shimcha 35 mln. dollar eksport ta'minlandi. Ma'lumot uchun 8 ta korxonalarga eksport qilishda transport xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish uchun 926 mln. so'mlik mablag' ajratildi, 6 ta eksport qiluvchi tashkilotlarga xalqaro standartlash va sertifikatlash tizimlarini joriy etish bo'yicha 826 mln. so'mlik mablag' to'lab berildi, 8 ta korxonaga ko'rgazma va yarmarkalarda ishtiroki bilan bog'liq xarajatlarini qoplab berish uchun 153,4 mln. so'm xarajatlari qoplab berildi, eksport amaliyotida zarur bo'ladigan 2381 ta ruxsatnoma va sertifikatlarni rasmiylashtirish uchun 429,5 mln. so'm to'lab berildi hamda 11 ta korxona tomonidan aylanma mablag'larini to'ldirish uchun olingan 15 mlrd. so'mlik kreditlarining foiz xarajatlarini 877 mln. so'm hamda 1 ta korxonaga 5,5 mlrd. so'm kredit olish uchun 2,8 mlrd. so'mlik kafillik taqdim etildi.

Eksport hajmlarining o'sishi yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat mahsulotlari eksportini oshirish hisobiga erishildi. Jumladan, paxta tolasi eksportini keskin kamaytirgan holda uni qayta ishslash darajasini oshirilishi evaziga tikuv-trikotaj mahsulotlari eksporti 2 barobarga yoki 60 mln. dollarga o'sdi, meva-sabzavot mahsulotlari 4 barobarga yoki 44 mln. dollarga hamda qurilish materiallari 6,6 barobarga yoki 3 mln. dollarga o'sishi ta'minlandi.

- yangi mahsulotlarni o'zlashtirish va ularni tashqi bozorlarga olib chiqish. Eksportchi korxonalar faoliyatini moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy tomondan qo'llab-quvvatlash choralarini faol davom ettirilishi natijasida 2026-yilda viloyat eksportini tayyor to'qimachilik mahsulotlari, ipak, qurilish mollari, qayta ishlangan va xo'l meva-sabzavotlarni eksportga ortish hisobiga 500 mln. dollarga yetishi yoki 2021-yil ko'rsatkichiga nisbatan 2,6 barobarga va 2017-yilga nisbatan 4 barobarga o'sdi. Buning natijasida eksport faoliyatiga 200 dan ortiq yangi korxonalar jalg etilib, ularning soni 400 dan oshirildi, 16 dan ortiq yangi bozorlarga viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan kirib borgan holda 65 dan ortiq davlatlar bozori o'zlashtirildi.

Meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarning xorijiy mamlakatlarda tashkil etiladigan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etishi keng tashkillashtirildi. Mahalliy meva-sabzavot mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarga to'siqsiz va muammosiz eksportini amalgalash oshirish maqsadida, mahsulot yetishtiruvchilarga xalqaro sertifikat va standartlar joriy etildi. Gulkaram (brokkoli), salat latuk, kulupnay va artishok kabi sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni ta'minlash natijasida noana'naviy turdag'i meva-sabzavot mahsulotlarini eksportga yo'naltirish orqali eksport hajmlari keskin oshirildi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish tizimini tubdan takomillashtirish natijasida jahon bozorlarida yuqori talabga ega mahsulotlarni yetishtirish va eksport qilish tashkillishtirildi.

Bugungi kunda viloyatdagi eksportyor va importyor korxonalar Turkmaniston Respublikasi hamda O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan davlatlarga Buxoro viloyatining Olot tumanidagi chegara posti orqali yuk tashish transportlarida mahsulotlar olib kirish va chiqishlari amalgalash oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida tadbirdorlarga ortiqcha transport xarajatlarni va ortiqcha vaqt sarflanishiga sabab bo'lmoqda. Shovot tumanida esa chegara-o'tkazuv punkti faoliyatini yo'lga qo'yish orqali to'g'ridan-to'g'ri

Ashxobot shahrigacha boradigan masofani 400 km.ga qisqartirishga erishiladi. Natijada, transport xarajatlari kamayib, eksporterlar korxonalar uchun qulaylik yaratiladi hamda viloyatning eksport salohiyati 10 mln. dollarga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov N. Increasing export potential with special economic zones in Uzbekistan. // Economics and Innovative Technologies. Vol. 2019, No. 6, November-December. – p. 87.
2. Tukhtabaev, J.S., Samiyeva, G.T., Kushbakov, A.N., Goziyeva, A.A., Razakova, B.S., Aktamov, O.A.U. (2023). Econometric Assessment of the Dynamics of Development of the Export Potential of Small Businesses and Private Entrepreneurship Subjects in the Conditions of the Digital Economy. In: Koucheryavy, Y., Aziz, A. (eds) Internet of Things, Smart Spaces, and Next Generation Networks and Systems. NEW2AN 2022. Lecture Notes in Computer Science, vol 13772. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-30258-9_39
3. <https://utmagazine.ru/posts/10928-diversifikaciya-eksporta>
4. <https://customwritings.co/the-importance-of-export-diversification/>
5. <https://www.wallstreetmojo.com/export/>
6. Потиенко Л.И. О привлечении инвестиций в повышение экспортного потенциала страны. // Вестник ФА, 4, 2006. - с. 130.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

